

Har xil muddatda ekilgan kungaboqarning urug'idagi moy miqdoriga ekish sxemasi va qo'shimcha changlatishning ta'siri

Turakulov Oybek Xolmirzayevich.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Annotasiya: Maqolada boshqoli don ekinlaridan bo'shagan yerlarda har xil: 1-iyul; 10-iyul; 20-iyul muddatlarida hamda 70x20x1; 70x25x1; 70x30x1; 70x30x1; 70x35x1; 70x40x1 sm ekish sxemalarida ekilganda kungaboqarning ertapishar SAM QXI 20-80 va SUR navlari urug'idagi moy va bir gektardan olingan moy miqdori ma'lumotlar keltirildi. Ekish muddati 1-iyuldan 10-iyulgacha va 10-iyuldan 20-iyulgacha kechikkan sari navlarga bog'liq holda urug'idagi moy miqdori hamda bir gektardan olingan moy miqdori kamayishi kuzatildi. O'rganilgan barcha ekish muddatlarida 70x20x1 sm dan 70x40x1 sm gacha oziqlanish maydoninng kengayishi hisobiga o'simliklarning yaxshi o'sib rivojlanishi kuzatildi, lekin maydon hisobidan tup sonining o'ta kam bo'lganligi uchun gektar hisobida juda yuqori hosil olinmadi. Qalin ekish sxemasi 70x20-1 va 70x25-1 sm o'stirilganda o'simliklarning poyasi nimjonlashib, savatchaning nisbatan kichik bo'lganligi sababli qator orasi 70 sm., o'simlik orasi 30 sm.dan 40 sm.gacha oshgan variantlarga nisbatan urug'idagi moy miqdori past bo'ldi.

Kalit so'zlar: Kungaboqar, SAM QXI 20-80, SUR, ekish muddati, ekish sxemasi, urug'dagi moy, qo'shimcha changlatish.

Materiallar va metodlar: tadqiqotlar Samarqand viloyati Oqdaryo tumanidagi Samarqand davlat veterinariya medisinasi chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti o'quv tajriba xo'jaligida o'tkazildi. Tajriba maydonining tuprog'i utloqi bo'z tuproq, mineral elementlar bilan o'rtacha darajada ta'minlangan. Tajribada obyekt sifatida moyli kungaboqarning ertapishar SAM QXI 20-80 va SUR navlarining 1-repraduksiyali urug'ligidan foydalanildi. Tajriba dalasida kuzgi boshqoli don ekinlaridan bo'shagan yerga takroriy ekin sifatida 1-iyul, 10-iyul va

20-iyul muddatlarida hamda 70x20-1, 70x25-1, 70x30-1, 70x35-1sm. va 70x40-1 sm. ekish sxemalari va mutanosib ravishda 71,4; 57,1; 47,6; 40,8; va 35,7 tup/ga. qalinlikda ekildi. Nazorat sifatida 70x25-1sm (57,1 tup/ga.) ekish sxemasi qabul qilindi. Paykalchalar 4 qatorli, qator orasi 0,7 m, uzunligi 20 m, variant uchun 56 m² bo'ldi. Tajriba to'rt qaytariqdan iborat.

Tadqiqot maqsadi: O'zbekiston Respublikasining sug'oriladigan o'tloqi bo'z tuproqlari sharoitida kungaboqarning SAM QXI 20-80 va SUR navlarini har xil muddatlarda ekilganda urug'idagi moy va bir gektardan olingan moy miqdoriga ekish sxemalari va qo'shimcha changlatishning ta'sirini aniqlashdan iborat.

Kirish. Мамлакатимизда ҳозирги пайтда кунгабоқарнинг экин майдони 40,0 минг гектарни ташкил этади. Республикаимизда ҳар йили эрта бошоқли дон экинларидан бўшаган 1,1 -1,2 млн.гектар майдон [анғиз]нинг мавжудлиги кунгабоқарни такрорий экин сифатида ўстиришнинг имконияти ниҳоятда катта эканлигини билдиради. Бироқ кунгабоқар мойи мамлакатимиз аҳолисининг бирламчи озиқ-овқат манбайига айланиб бораётган бир вақтда ушбу эҳтиёжни ватанимиз ҳудудида етиштирилаётган кунгабоқар ҳосилидан олинган мой ҳисобига таъминлаш долзарб масалага айланиб бормоқда. Ушбу муаммони фақатгина майдон бирлигидан олинадиган юқори ва мойлилик сифатига эга бўлган ҳосил олиш учун зарурий агротехник тадбирларни ўз вақтида ўтказган ҳолда мақбул экиш муддати, оптимал экиш схемасини қўллашдан иборат [5].

Amanova M.E, Rustamov A.S [2004] [2; 16 b] ma'lumotlariga ko'ra kungaboqar urug'i naviqa qarab tarkibida 0,7-1,0 % miqdorda fosfolipid [fosfatid], 0,23-0,24 % sterol moddalari saqlaydi. So'ngi davrlarda yaratilgan seleksion navlar urug'ining moyida 60-80 mg % gacha Ye vitaminining faolligini oshiruvchi toqoferol moddasi bo'ladi. Yuqori moyli kungaboqar navlarining urug'lari tarkibidagi suvda eruvchan vitaminlar [nikotin kislotasi, tiamin, biotin va riboflavin] miqdori jihatidan yer yong'oq urug'lariga teng keladi.

D. T. Abdulkarimov [2007] [1; 426 b] ma'lumotlariga ko'ra kungaboqar urug' [pista]ning va moyining oziqaboplik sifatleri – moy kislotasi tarkibidan tashqari

uning tarkibidagi vitaminlar, tabiiy oqsidlatuvchi ingibitorlar va prooksidantlar saqlanishga bog'liq. Kungaboqar urug'ining tarkibida 0,7 – 1,0 % fosfolipid [fosfatid], 0,23 – 0,24% sterol moddalari to'planadi. Hozirgi yaratilgan navlarning moyida 60 – 80 mg% tokoferol moddasi saqlanib, bu modda Ye vitaminini faolliligiga ta'sir etadi.

М.К. Луков Г.Сафарова [3; 15-17 б.] таъкидлашича кунгабоқар навларнинг тез пишарлиги махсулдорлиги, ҳосилдан мой чикими ҳар хил муддатларда ва ҳар хил экиш қалинлигида турлича кўрсаткичларда бўлади, Тайлоқ туманида анғизда Пиёнер навини 1-июлгача 70x25 см. ли, СамҚХИ-10-70 рақамли намунасини 10 июлгача 70x30 см. ли схемада, ВНИИМК-89/31 ва Надежный навларини 25 июнгача 70x35 см. ли схемада экилганда яхши ўсиб ривожланади ва юқори ҳосилдорликка еришилади.

М.К.Луков [4; 65-66 б.] таъкидлашича бир хил тупроқ иқлим шароитида ўстирилган кунгабоқар навлари ва дурагайлариининг ҳосилдорлиги ва уруғидаги мой миқдори бир-биридан кескин фарқ қилади. Республикамиз шароитида экишга тавсия етилган Жаҳонгир навидан 28 ц/га, Красотка ва Санбрэд 254 дурагайларида агротехник қоидаларга риоя қилиб ўстирилганда гектарида 31,1-33,4 ц/га ҳосил етиштирилади.

Tadqiqot natijalari: Kungaboqar navlarini ekish muddati, sxemasi va gullash fazasida sun'iy ravishda qo'shimcha changlatish o'tkazish urug'dagi moy miqdoriga sezilarli ta'sir ko'rsatdi [1-2-jadval].

SAM QXI 20-80 navida ekish muddati 1 iyulda qo'shimcha changlatilgan variantlarda urug'dagi moy 46,7 % dan 50,5 % gacha bo'ldi. Oziqlanish maydoni 1400 sm² bo'lgan qo'shimcha changlatilgan variantda urug'dagi moy 46,7 % va moy miqdori 1420 kg/ga bo'lganligi aniqlandi. Oziqlanish maydoni nazorat bo'lgan 1750 sm² ekish sxemasining qo'shimcha changlatilgan variantida urug'dagi moy 48,6 %, moy miqdori 1701 kg/ga bo'ldi. Nazorat variantga nisbatan oziqlanish maydoni 2100 sm² bo'lgan qo'shimcha changlatilgan variantda urug'dagi moy 2,9 %, moy miqdori o'rtacha 313 kg/ga, 2450 sm² bo'lgan oziqlanish maydonining qo'shimcha changlatilgan variantida urug'dagi moy 3,1

%, moy miqdori gektariga 295 kg/ga va oziqlanish maydoni katta 2800 sm² bo'lgan qo'shimcha changlatilgan variantda esa nazoratga nisbatan urug'dagi moy 3,4 %, moy miqdori gektariga 74 kg/ga yuqori bo'lganligi aniqlandi. Urug'dagi moy foiz hisobida oziqlanish maydoni katta bo'lishi bilan oshib bordi. Urug'dagi moy eng yuqori bo'lgan 2800 sm² oziqlanish maydonida kuzatildi. Bir gektardan olingan moy miqdori qo'shimcha changlatilgan variantlarda eng kam ko'rsatkich oziqlanish maydoni 1400 sm² bo'lgan variantda aniqlangan bo'lsa, eng yuqori natija esa oziqlanish maydoni 2100 sm² bo'lgan variantda aniqlandi. Oziqlanish maydoni haddan tashqari katta bo'lishi bir gektarda moy miqdori kamayishiga olib keldi.

O'rta (10.07) va kech (20.07) muddatda ekilgan variantlarda ham yuqoridagi qonuniyat kuzatildi. 10 iyulda qo'shimcha changlatilgan variantlarda urug'dagi moy yuqori bo'lib, oziqlanish maydonlariga mos ravishda urug'dagi moy 45,0; 46,6; 48,4; 48,6 va 49,0 % bo'lganligi kuzatildi bu esa tabiiy changlangan variantlarga nisbatan ushbu ko'rsatkich mos ravishda 1,7; 1,5; 1,6; 1,5 va 1,4 % yuqori bo'lganligi qayd etildi. O'rta (10.07) muddatda bir gektardan olingan moy miqdori qo'shimcha changlatilgan variantlarda eng yuqori natija oziqlanish maydoni 2100 sm² bo'lgan variantda 1636 kg/ga bo'lganligi kuzatildi. Qo'shimcha changlatilgan variantlar bo'yicha eng kam natija oziqlanish maydoni kichik 1400 sm² bo'lgan variantda 1242 kg/ga ni tashkil qildi.

Kungaboqar navlarining urug'idagi moy miqdori va bir gektardan olingan moy miqdori ekish muddatining kechikishi bilan kamayishiga olib keldi. 20 iyulda ekilgan va qo'shimcha changlatilgan variantlarda, 1 iyulda ekilgan variantlarga nisbatan urug'dagi moy mos ravishda 4,0; 5,1; 5,0; 4,3 va 4,3 %, bir gektardan olingan moy miqdori esa 323; 383; 385; 393 va 385 kg/ga kam bo'lganligi aniqlandi. Kechki 20 iyulda ekilgan muddatda ham oziqlanish maydoni 2100 sm² bo'lgan qo'shimcha changlatilgan variantda bir gektardan olingan moy miqdori 1440 kg/ga bo'lib, ushbu muddatdagi nazorat variantiga nisbatan 370 kg/ga yuqori bo'lganligi aniqlandi.

1-jadval

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Har xil muddatlarda ekilgan kungaboqar Sam QXI 20-80 navi urug'idagi moy miqdoriga ekish sxemasi va qo'shimcha changlatishning ta'siri (2020-2022)

Eki sh sxemasi, sm	Changlatish	U rug' da gi moy,%	Mo y miqdori	Qo'shimcha moy (ko'p +), (kam -)		
				eki sh muddati evaziga	ekis h sxemasi evaziga	qo'shi mcha changlatish evaziga
1.VII						
70x 20-1	Tabiiy	45	123	-	-278	-
	Qo'shi mcha	,2 46	4 142	-	-	+186
70x 25-1 (st)	Tabiiy	47	151	-	st	-
	Qo'shi mcha	,1 48	2 170	-	-	+189
70x 30-1	Tabiiy	48	164	-	+131	-
	Qo'shi mcha	,6 50	3 182	-	-	+182
70x 35-1	Tabiiy	48	163	-	+118	-
	Qo'shi mcha	,8 50	0 180	-	-	+177
70x 40-1	Tabiiy	49	143	-	-78	-
	Qo'shi mcha	,1 50	4 158	-	-	+152

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

10.VII						
20-1	70x	Tabiiy	43	102	-	-
			,3	6	208	-264
	70x	Tabiiy	45	129	-	-
			,1	0	222	st
25-1 (st)	70x	Tabiiy	45	129	-	-
			,1	0	222	st
	70x	Tabiiy	46	142	-	-
			,8	3	220	+133
30-1	70x	Tabiiy	46	142	-	-
			,8	3	220	+133
	70x	Tabiiy	48	163	-	-
			,4	6	189	-
35-1	70x	Tabiiy	47	142	-	-
			,1	2	208	+132
	70x	Tabiiy	48	160	-	-
			,6	4	203	-
40-1	70x	Tabiiy	47	126	-	-
			,6	1	173	-29
	70x	Tabiiy	49	142	-	-
			,6	1	173	-29
40-1	70x	Tabiiy	47	126	-	-
			,6	1	173	-29
	70x	Tabiiy	49	142	-	-
			,6	1	173	-29
40-1	70x	Tabiiy	49	142	-	-
			,0	1	165	-
	70x	Tabiiy	40	846	-	-
			,3	6	388	-224
20-1	70x	Tabiiy	40	846	-	-
			,3	6	388	-224
	70x	Tabiiy	42	109	-	-
			,7	7	323	-
25-1 (st)	70x	Tabiiy	41	107	-	-
			,3	0	442	st
	70x	Tabiiy	43	131	-	-
			,5	8	383	-
25-1 (st)	70x	Tabiiy	41	107	-	-
			,3	0	442	st
	70x	Tabiiy	43	131	-	-
			,5	8	383	-
25-1 (st)	70x	Tabiiy	43	131	-	-
			,5	8	383	-
	70x	Tabiiy	43	131	-	-
			,5	8	383	-
25-1 (st)	70x	Tabiiy	43	131	-	-
			,5	8	383	-

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

70x 30-1	Tabiiy	43	120	-		
	Qo'shi mcha	,4 0	7 0	436 385	+137 -	- +233
70x 35-1	Tabiiy	44	122	-		
	Qo'shi mcha	,3 9	3 4	407 393	+153 -	- +191
70x 40-1	Tabiiy	44	104	-		
	Qo'shi mcha	,6 2	8 1	386 385	-22 -	- +153

SUR navida urug'dagi moy va bir gektardan olingan moy miqdori Sam QXI 20-80 navi singari ekish muddati kechikishi bilan kamayganligi kuzatildi. Urug'dagi moy qo'shimcha changlatilgan variantlar bo'yicha eng yuqori natija ekish sxemasi 70x40-1 bo'lgan variantda 47,9 % bo'lgan bo'lsa, SAM QXI 20-80 navining eng yuqori olingan variantiga nisbatan 2,6 % kam bo'ldi. Bir gektardan olingan moy miqdori esa SUR navida 70x25-1 ekish sxemasida eng yuqori 1461 kg/ga bo'lib, SAM QXI 20-80 naviga nisbatan bir gektardan olingan moy miqdori 364 kg/ga kam bo'lganligi qayd etildi.

Urug'dagi moy va bir gektardan olingan moy miqdori eng kam ko'rsatkich qo'shimcha changlatilgan variantlar bo'yicha ekish sxemasi 70x20-1 bo'lgan variantda mos ravishda 44,3 % va 1218 kg/ga bo'ldi.

SUR navini o'rta (10.07) muddatda qo'shimcha changlatilgan variantda bir gektardan olingan moy miqdori SAM QXI 20-80 nvaiga nisbatan mos ravishda 172; 207; 347; 378 va 331 kg/ga kam bo'lganligi aniqlandi. Bir gektardan olingan moy miqdori eng kam bo'lgan 20 iyul ekish muddatining tabiiy changlangan variantlarida qo'shimcha changlantilganga nisbatan 198; 186; 169; 146 va 122 kg/ga kam bo'ldi.

Xulosalar

Moyli kungaboqar navlarini urug' tarkibidagi moy miqdori gullash fazasida sun'iy ravishda qo'shimcha changlatish o'tkazilganda yuqori, o'simlikning ekish muddati kechikishi va oziqlanish maydoni kamayishi kam bo'ldi.

Bir gektardan olingan moy miqdori pista hosiliga va urug'dagi moy miqdoriga bog'liq bo'lib, SAM QXI 20-80 navida 1-iyul muddatida ekilib, oziqlanish maydoni 2100 sm² bo'lgan qo'shimcha changlatilgan variantda eng yuqori, SUR navida esa shu muddatda ekilganda, 1750 sm² bo'lgan oziqlanish maydonining qo'shimcha changlatilgan variantida eng yuqori bo'lishi kuzatildi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Abdukarimov D.T. Dala ekinlari xususiy seleksiyasi// Toshkent-2007 yil
2. Amanova M.E, Rustamov A.S. «Kungaboqar va uning istiqbolli namunalari», O'zbekiston Agrar fani xabarnomasi 2004 yil №2 [16];
3. Lukov M.K., Saftarova G. Ang'izda ekilgan moyli kungaboqar hosildorligining navlar ertapisharliligi va ekish usullariga bog'liqliligi // "Qishloq xo'jalik taraqqiyoti-farovonlik manbayi" mavzuyidagi ilmiy to'plam, Samarqand qishloq xo'jaligi instituti, Samarqand, 2001 yil, B 15-17.
4. Lukov M.K. Kungaboqar hosildorligiga nav omilining ta'siri // Fermer xo'jaliklarini rivojlantirish istiqbollari Iqtidorli talaba va magistrantlarning ilmiy ronferensiya materiallari to'plami, Samarqand 2009 5-7 may 1-qism, B 65-66.
5. <https://www.faostat.org>. 2018.